O‘ZBEKISTON
MILLIY BANKI

nbu.uz/anti-corruption

1344 | (78) 148 00 89

Muhim ma'lumot

O‘zbekiston Respublikasi
korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi

Manfaatlar to‘qnashuvi

Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va bartaraf etish uchun mas’ul bo‘lgan organlar va tuzilmalar:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi — maxsus vakolatli davlat organi.
- Maxsus bo‘linmalar (davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarning ichki korrupsiyaga qarshi nazorat bo‘linmalari va/yoki kadrlar bo‘linmalari).
- Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar.
- Etika komissiyasi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vakolatlari:

- Davlat organlari va tashkilotlaridan manfaatlar to‘qnashuvi bo'yicha ma’lumotlarni so‘rash va o‘rganish.
- Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishni muvofiqlashtirish.
- Mazkur sohadagi tashkilotlar faoliyatini, shu jumladan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish.
- Manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda, tashkilotga bitimni bekor qilish, qarorni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida taqdimnoma kiritish, yoxud ularni haqiqiy emas deb topish bo‘yicha sudga da‘vo arizasi bilan murojaat qilish.
- Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestri, mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma va ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya shakllarini tasdiqlash.

Manfaatlar to‘qnashuvi

Manfaatlar to‘qnashuvi — bu shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning xizmat vazifalarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo‘lgan, fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari yoxud qonuniy manfaatlariga zid keladigan holatdir.

- Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi — bu allaqachon mavjud bo‘lgan ziddiyatdir.
- Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi — bu kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar toqnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni

Qonun raqami: ZRU-931. Qabul qilingan sana: 2024-yil 5-iyun

Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha qanday hujjatlar to‘ldiriladi?

- Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya.
- Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risida xabarnoma.
- Manfaatlar to‘qnashuvi holatlari manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrida qayd etiladi.

Qonun bilan belgilangan cheklovlar va qoidalar to'liq hajmda tatbiq etiladigan subyektlar:

- Davlat organlari.
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari.
- Davlat muassasalari.
- Davlat unitar korxonalari.
- Davlat maqsadli jamg‘armalari.
- Ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi Qonunning faqat tegishli normalari tatbiq etiladigan subyektlar:

- Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarning umumiy ulushi 50 foiz va undan ortiqni tashkil etuvchi yuridik shaxslar.
- Ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu moddaning uchinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan tashkilotlarning umumiy ulushi 50 foiz va undan ortiqni tashkil etuvchi yuridik shaxslar.

- Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va nashr etish.
- Fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlat manfaatlariga yetkazilgan zararlarni qoplashni nazorat qilish.
- Xodimlar uchun o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish.
- Ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha bayonnomalar tuzish va ularni sudga yuborish.

Maxsus bo‘linma

- Xodim tomonidan aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘playdi.
- Tashkilot xodimi tomonidan Qonun talablariga rioya qilinmagan holatlarda xizmat tekshiruvini o‘tkazadi.
- Xodimlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib boradi.
- Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi haqidagi xabarnomalarni ko‘rib chiqadi va ularning natijalari asosida etika komissiyasiga takliflar kiritadi.
- Xodim tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi haqida berilgan xabarlarga asoslanib, manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi haqida xulosa beradi.
- Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini tahlil qiladi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.
- Mazkur Qonun talablariga rioya etilishi holati bo‘yicha yillik hisobotlar tayyorlaydi va ularning rasmiy veb-saytda joylashtirilishini ta’minlaydie.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarning vakolatlari:

- Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risida xabarnomalar tizimini tashkil etadilar.
- Rasmiy veb-saytlarda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasi va manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi haqidagi xabarnoma shakllarini joylashtiradilar.
- Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi sharoitida qabul qilingan qarorlarni o‘zgartiradilar yoki bekor qiladilar.
- Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi sharoitida tuzilgan bitimlarni o‘zgartiradilar yoki bekor qiladilar, yoki ularni haqiqiy emas deb topish bo‘yicha sudga da’vo bilan murojaat qiladilar.
- Etika komissiyalari va manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni hal etish bo‘yicha maxsus bo‘linmalarning faoliyatini tashkil etadilar.
- Tashkilotlarda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha ichki tartibotni belgilaydilar.
- Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xizmat tekshiruvini obyektiv o‘tkazilishiga va uning natijalari etika komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilishiga kafolat beradi.
- Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishda namuna ko‘rsatgan xodimlarni rag‘batlantirish choralarini ko‘radilar.
- Manfaatlar to‘qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararlarni qoplashni ta’minlaydilar va tegishli davlat organi yoki boshqa tashkilotga nisbatan aholining ishonchini tiklash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘radilar.

Etika komissiyasi

- Mazkur Qonun bilan belgilangan talablarning xodim tomonidan bajarilishini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘radi.
- Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish bo‘yicha qabul qilinayotgan choralarning to‘g‘riligini ko‘rib chiqadi.
- Manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha kollegial nazoratni amalga oshiradi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi

Mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoki saylanadigan yoki tayinlanadigan lavozimda davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshiruvchi boshqaruv xodimi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi bilan bog‘liq shaxslar:

- Tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, farzandlar, turmush o‘rtog‘i hamda turmush o‘rtog‘ining ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari).
- Tashkilot xodimi va/yoki uning yaqin qarindoshlari aksiyalari yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlari mavjud bo‘lgan yuridik shaxs.
- Tashkilot xodimi yoki uning yaqin qarindoshlari rahbari yoki boshqaruv organi a’zosi bo‘lgan yuridik shaxs.